

YAQIN SHARQ TAQDIRINI O‘ZGARTIRGAN 6 KUNLIK URUSH YOXUD ISROILNING ULKAN ZAFARI

Akmaldinova Dilafruz Elmurod qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi xalqaro munosabatlar yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321116>

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda yuz bergan siyosiy voqealardan biri bo‘lgan “Olti kunlik urush” haqida so‘z boradi. Urushning kelib chiqishiga turtki bo‘lgan asosiy sabablar tarixi yoritiladi. Mavzu bo‘yicha tahlil va qisqacha xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Yaqin Sharq, BMT, Isroil, FATX, arablar, Misr, Suriya, Falastin.

Dunyoda shunday ziddiyatli hududlar borki, bu yerlarda har yili turli to‘qnashuvlar yuz beradi. Minglab begunoh insonlar halok bo‘ladi. Shunday hududlardan biri Yaqin Sharq mintaqasidir. Bu yerda bir urush tugamasdan oldin boshqasi boshlanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu mojarolar kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q, yillar davomida minglab insonlar hayotiga zomin bo‘lib kelmoqda. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Xo‘sh, nima uchun dunyo ahli bu masalalar bo‘yicha hammani qanoatlantiradigan yechimni haligacha topa olmayapti? Bu mojarolar, to‘qnashuvlar nima uchun to‘xtatilmayapti? Bu masalada kimlarning manfaati yotibdi?

Yaqin Sharq hududida oxirgi 50 yil ichida yirik qirg‘inbarot urushlar bo‘lib o‘tdi. Shunday urushlardan biri arab dunyosini larzaga solgan “Olti kunlik urush” edi. Vaqt jihatidan qisqa, oqibatlar bo‘yicha esa hech qachon barham topmaydigandek tuyiladigan bu urushning kelib chiqishiga sabab nima edi, aslida? “Olti kunlik urush” 1967-yil 5-iyunidan 10-iyuniga qadar davom etdi. Bu urushda bir tomonda Isroil, boshqa tomonda esa Misr, Suriya, Iordaniya, Iroq va Jazoir davlatlari turib bir-birlariga qarshi kurash olib bordilar. Bir qator siyosatchilar urush boshlanishiga doir bir necha sabablarni keltirib o‘tadilar. Ularning fikri qanchalik asosga ega ekanligi esa bizga qorong‘u.

Yaqin Sharq hududiga nizo urug‘lari o‘tgan asrning 50-yillarida sepila boshlangandi. Aslini olganda esa bu dunyo rivojlangan davlatlarining “Ikkinchi katta siyosiy o‘yini”dan qolgan uchqunlar edi. Lekin bunday qirg‘inbarot urushning boshlanishiga bir turtki bo‘lishi kerak-ku. Aynan shu turtki nimada yoki kimda edi? Qaysi davlatlar qo‘llab-quvvatladi yoki aksincha? Bu urush kimlarga qanday manfaat keltirdi? Quyida shu savollarga to‘liqroq javob topishga harakat qilamiz.

Odatda urushlar yillar davomida yig‘ilib qolgan muammolar natijasida yuzaga keladi. Xususan, “Olti kunlik urush” ham. Bu mojaro 50-yillari kurtak yoza boshlagandi.

XX asrning 50-yillarida Misrda monarxiya ag‘darilib, uning o‘rniga Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi inqilobiy respublikachilar keldi. Jamol Abdul Nosir xalqni birlashtirishni va inqilobni boshqa arab mamlakatlariga ham ko‘chirish istagi borligini sira ham yashirmagan. Bu “istak” 1956-yilgi Suvaysh inqirozi davrida yaqqol namoyon bo‘ldi. Misr hukumati Suvaysh kanalini “misrlashtirish”ni, “milliylashtirish”ni boshladi. Bu esa tabiiyki, Isroil va Yevropa davlatlariga yoqmadi. Fikrimcha, bu, asosan, Yevropa davlatlarining manfaatlarigagina zid edi. Chunki bu voqeaga Isroil qarshi chiqsa ham, bunchalik qisqa muddatda Misrdek kuchli davlatni yenga olmas edi. Yevropa davlatlari esa Isroildan qurol sifatida foydalandilar. Bunga sos qilib, Isroil va Angliya, Fransiya davlatlari o‘rtasidagi yashirin kelishuv orqali yoki Isroil davlatining butun Sinay yarimoroli va G‘azo sektorini bosib olishga muvaffaq bo‘lganini keltirish mumkin. Tez orada

esa arab dunyosiga doimo “tinchlik” istovchi AQSh va butun Yevrosiyo mintaqasining o’sha davr uchun gegemon davlati SSSRning qistovi bilan Angliya va Fransiya qo’shinlari Misr hududini tark etishdi. BMT esa bu voqeadan so’ng, urushdan keyingi qahramon singari tinchliksevar qo’shinlarini Misr- Isroil chegarasiga joylashtirdi. 1956-yildan keyin Misr-Isroil va Iordaniya-Isroil chegaralarida harbiy harakatlar anchagina kamaydi². Bu ma’lum bir ma’noda urushning boshlanishi edi. Bu voqealardan so’ng Misr g’arb davlatlaridan uzoqlashib, Yaqin Sharqda ittifoqchi topishdan manfaatdor bo’lgan SSSRga yaqinlasha boshladi. Misrning bu tanlovi o’zini oqladi ham. SSSR uni har tomonlama qo’llab-quvvatladi. Bu esa o’z navbatida Misrni Isroilga qarshi keng ko’lamli urush qilish ehtimolini berardi. Buni ba’zi siyosatchilar Misrning 8 harbiy brigadasi bilan Yamandagi fuqarolar urushida qatnashib, respublikachilar tomonida turib qirollikka qarshi kurashgani bilan asoslashadi³. Shu bilan 1967-yil bahoriga qadar Isroil-Misr munosabatlari nisbatan tinchligicha qoladi.

Isroil-Suriya munosabatlarida ushbu davrga kelib asosiy 3 ta muammo bor edi. Bular, asosan, suv resurslari bo’yicha 1948-yilgi o’t ochishni to’xtatish chizig’i bo’ylab delimitarizatsiyalangan zonalarini nazorat qilish va Falastinning harbiylashtirilgan guruhlarini qo’llab-quvvatlashida hech kimni suvereniteti ostida bo’lmasligi kerak edi⁴. A. Bregmenning fikriga qaraganda, Isroil suriyaliklarni gijgijlash va keyingi to’qnashuvlar chog’ida bu yerlarda nazoratni o’rnatishga uringan⁶. Lekin 1956-yil 30-martda Isroil Tashqi ishlar vaziri Moshe Sharet SSSRning Isroildagi elchisiga yuqoridagi fikrlarni rad etuvchi maktub yo’llaydi. Maktubda aytiladiki: “Sulh shartnomasi qurolsizlantirilgan zonada sug’orish va qurilish ishlarini ta’qiqlamaydi”. Bu esa ma’lum bir ma’noda Bregmenning fikrlariga zid edi. Bundan tashqari kelishuvda “ bu zonada fuqarolar hayoti normal bo’lishi kerak”ligi aytilgan edi⁴. Shu bilan birga Isroil Tashqi ishlar ministri Abba Evenning BMT Xavfsizlik Kengashiga bergan bayonotiga ko’ra, faqat 1955-yilning dastlabki 11 oyida Suriya-Isroil chegarasida atigi 22 milya uzunlikdagi sulh bitimining Suriya tomonidan 108 ta buzilish holatlari qayd etilgan⁵. Isroilning bir qism qishloqlari, qishloq xo’jalik ishchilari va baliqchilarni o’qqa tutdi. Bir tomondan qaraganda, Suriyaning bu ishlari Isroil davlatini ham tezroq harbiy choralar ko’rishga majbur qilardi. Lekin Suriya bu bilan cheklanib qolmadi. 1964-1966-yillarda Isroilning Kinneret ko’liga kelib quyiladigan Iordan daryosining suvlarini o’z hududiga yo’naltirishga qaror qiladi. Buning oqibatida esa 1964-1965-yillarda to’rtta yirik chegara urushlari bo’lib o’tdi². Shu bilan birga Isroilga qarshi harakatlar to’xtamadi. 1966-yil oktabr va noyabr oylarida “EL-FATX” va boshqa mayda terrorchilik guruhlari Isroilga qarshi sabotaj harakatini kuchaytirib yubordi⁷. Hammasi bo’lib, 1965-yil yanvaridan 1967-yil iyuniga qadar Isroilga 122 marta hujum uyishtirishgan. FATX hujumlarining aksari qismi Livan va Iordaniya hududlaridan amalga oshirilgan². Isroil bundan ko’p yo’qotishga uchradi. U endi qasos olish yo’liga o’ta boshladi. 1966-yil 13-noyabrda g’arbiy sohildagi Samu operatsiyasi davomida 125 ta uyni portlatib, 3 nafar tinch aholi va 15 nafar iordaniyalik askar halok bo’ldi⁸. Iordaniya shundan so’ng Jamol Abdul Nosirni “BMT qo’shinlari etagi ostiga yashirganlikda aybladi” va yordamga kelmaganligi uchun shikoyat qildi². Isroilning bu harakatlari BMT Xavfsizlik Kengashining 228-rezolyutsiyasi bilan qoralangan va boshqa bunday harakatlar qilmaslik bo’yicha ogohlantirildi⁹. Lekin reyding sabalari bu rezolyutsiyada ko’rsatilmagan. Shu davrdan boshlab arab davlatlari birlasha boshlashadi. Xususan, 1966-yil noyabrda Misr va Suriya o’zaro ittifoqqa kirishadilar. 1967-yilning aprelidan mayigacha Suriya-Isroil chegarasida to’qnashuvlar kuchayadi. 1967-yil 22-mayda Knossetdagi nutqida Isroil Bosh vaziri Levi Eshkol 1965-yil mayidan 1967-yil apreliga qadar Suriyani 113 ta harbiy harakatlari uchun aybladi. Buning natijasida 1966-yil iyun oyidan beri Isroil BMT Xavfsizlik Kengashiga 34 marta norozilik bildirgan.

Endilikda urush boshlanishi muqarrar bo‘lib qoldi. Urush 1967-yil 5-iyunda boshlandi. Aslida, boshlanib ketishiga sabab 1967-yil may oyida sobiq Sovet Ittifoqi vakillari Misr rahbari J.A.Nosirga Isroil qo‘shinlari Suriya chegarasida to‘planayotgani haqida yolg‘on xabar beradi. Bunga javoban Misr shu chegaradagi BMT qo‘shinlarining punktlarini egallay boshlaydi. Agar urush boshlangudek bo‘lsa, asosiy maqsad Isroilni yo‘q qilish bo‘lishini ta’kidladi. 1967-yil 1-iyunda Isroilda milliy birlik hukumati tuzildi⁹.

Urush boshlandi. Birinchi havo janggi bilan boshlangan kun tanklar to‘qnashuvi bilan yakunlandi. Isroil havo kuchlari 3 soat davomida Misrning kamida 300 ta jangovor samolyotlarini yo‘q qildi. 30 ga yaqin Tu-16, Il-28, Su-17, MIG-17, MIG-19 va MIG-21 qiruvchi samolyotlarini ishdan chiqardi. Misr aviatsiyasi real harbiy kuch sifatida yo‘q bo‘lib ketdi. Kunning oxiriga kelib Suriyaning 60 ta samolyoti, ikkinchi kuni esa Iordaniyaning 40 ta samolyoti yo‘q qilindi. Urush taqdiri Isroil tomonga hal bo‘lganday edi. Lekin Isroil ham 35 nafar tank komandirini yo‘qotdi. Ikkinchi kuni esa G‘azo sektori bosib olindi. Markaziy frontda Iordaniyaning bir qator shaharlari bosib olindi. Misr orqaga chekina boshladi. Isroil bosh shtabi boshlig‘ining o‘rinbosari general Haim Bar-Lev 7-iyun chorshanba kuni ertalab Quddusni eski shaharini shturm qilishga buyruq berdi. Kechga borib 1948-yil Iordaniya tomonidan bosib olingan Quddus ozod qilindi. Bu orada Isroil kuchlari g‘arbiy sohil bo‘ylab siljib borardi. To‘rtinchi kuni, 8-iyunda g‘arbiy sohilni Isroil qo‘shinlari zabt etdi. 8-9-iyunga o‘tar kechasi Misr sulhga rozi bo‘ladi. 9-iyunda esa Isroil butun Suriya qo‘shinlarini mag‘lub etib Jo‘lan tepaliklarini o‘z qo‘liga oldi. 10-iyun kuni esa Suriya qo‘shinlari chekina boshladi. Isroil tanklari Suriya poytaxtidan 40 km uzoqlikda edi. Soat 19:30 da BMTning takroriy buyrug‘idan so‘ng tomonlar o‘t ochishni to‘xtatdilar. Shu bilan 6 kunlik urush tugadi¹⁰. Buning natijasida Isroil Jo‘lan tepaligi, Sinay yarimoroli va Iordan daryosinig g‘arbiy sohilini o‘z nazoratiga oldi. Ammo urush tugaganidan 9 kun o‘tib Isroilning bo‘lg‘usi prezidenti Haim Gertsog “Isroil hukumati bir ovozdan Sinayni Misrga qaytarib berishga qaror qildi” deb e‘lon qildi. 1967-yilda Sudanda rezolyutsiya qabul qilindi. Unga ko‘ra arab davlatlari “yo‘q” siyosatini yuritdi. Va bu ma‘qullandi. Unga ko‘ra “Isroil bilan tinchlik-yo‘q, Isroilni tan olish-yo‘q, Isroil bilan muzokaralar-yo‘q”.

Shunga qaramasdan, olti kunlik urushdagi g‘alaba 1979 yilda Isroilning Misr bilan, 1993 yilda Falastin ozodlik tashkiloti bilan tinchlik shartnomasini imzolashga erishdi. Lekin bu shartnomalar unga hech qanday yengillik keltirmadi. Yaqin Sharqda urush aks-sadosi haligacha tinmagan.

Xulosa

Insoniyat yaralgandan beri minglab urushlarga guvoh bo‘ldi. Lekin bu urushlar qisqa davr ichida o‘z nihoyasiga yetgan. Yahudiy va arablar esa bir asrdan oshiqroq vaqt mobaynida bir-birlari bilan qonli urushlar olib bormoqda. O‘tgan yillar davomida Arab-Isroil urushi goh kuchayib, goh susayib keldi, lekin hech qachon butkul to‘xtamadi. BMT, dunyoning yetakchi davlatlari bundan tashvishda ekanliklarini bildiradilar, lekin bu masalaga barham berishning yechimini topmaydilar. Bu urush hali ham davom etmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Arab-Isroil mojarolarining tarixi Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda boshlangandi. Bu mojaroga 1947-yil 29-noyabrda BMT maxsus qo‘mitasining Falastinda ikki davlat: ham arab, ham yahudiy davlatini tuzish bo‘yicha qabul qilgan qarori sabab bo‘ldi. Oradan 6 oy o‘tib, 1948-yilning 14-mayida mustaqil Isroil davlati tuzilganligi e‘lon qilindi, Falastin arab davlati tuzilmay qolib ketdi. Aynan shu voqealar natijasida arab-yahudiy muammosi kelib chiqdi. BMT yer taqsimlashda ham anchagina xatoliklarga yo‘l qo‘ydi: Isroilga unumdor yerlar berildi, Falastinga esa, aksincha, suv va boshqa resurslar jihatidan ham qisib qo‘yildi. Bu esa dindosh bo‘lgan boshqa arab davlatlariga yoqmad. Isroil mustaqil davlati tuzilgach, Falastin xalqi u yerdan chiqib keta boshladi yoki majburlab chiqarib yuborildi. Birgina

1949-yilda ularning soni 711 000 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1967-yil urush paytida yana 350-400 000 aholi Isroildan ko'chirib yuborildi. Bu esa Falastin xalqi uchun haqiqiy fojia bo'ldi.

Yana bir masalaga alohida urg'u berish lozim. Yaqin Sharq masalasini hal qilishda nega Falastindagi musulmon yoki Isroil davlatining yahudiy vakillari qatnashmaydilar? Asosiy rolni doim biz bilgan AQSh, Yevropa va BMT o'ynab keladi. Ikki o'zga din vakillarining muammolarini uchinchi tomon hal qilishi to'g'rimi, aslida? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, aynan shu hudud AQSh va sobiq SSSR uchun ma'lum bir ma'noda kurash maydoni bo'lib kelgan. Bunday manfaat esa AQSh uchun bitmas-tuganmas boylik bo'lsa, sobiq SSSR uchun o'z hududini kengaytirishga kerak edi. Urush tugamas ekan AQSH boyishda davom etadi, bu “boylik” nimada ekanligi esa barchamizga birdek ma'lum. Mana necha yillar bo'ldiki, bu masalaga haligacha yechim topilgani yo'q. AQSh “Yaqin Sharq tinchligi – olam tinchligi” tamoyilini dunyoga baralla aytgani bilan bu masalada hech qanday ko'zga ko'rinarli harakat qilgani yo'q. Bu esa Amerika diplomatiyasining eng katta muvaffaqiyatsizligi sifatida ko'riladi. Shu davrgacha AQShda hokimiyatga kelgan siyosatchilar ma'lum bir ma'noda doim Isroil taraf bo'lib kelgan. Bu esa Isroil uchun katta foyda, albatta. Lekin shunday bo'lsa ham, AQSh Falastinni unutmadi, unga har yili moddiy yordam ko'rsatib keldi. Shuningdek, yaqin yillar oralig'ida Amerika siyosatchilari Yaqin Sharq muammosini hal qilish bo'yicha ishlab chiqilayotgan kelishuv dasturini bir muddatga qoldirganliklarini e'lon qildilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu masala juda nozik, dinga borib taqaladi va bu masala bo'yicha olib borilayotgan barcha muzokaralar boshi berk ko'chaga olib boradi. Boshqa tomondan esa, har ikki davlat o'rtasidagi masalada inson omiliga, fuqarolarning hayotiga urg'u berilmayapti. O'zi shundoq ham Yaqin Sharqda oziq-ovqat va suv muammosi mavjud. Hukumat oldida shunday muammolar turganda bu davlatlarning o'zaro qonli urushlari ortiqcha, aslida. Bunday muammolar istalgan paytda yangi ixtiloflar, keng miqyosli urushlar yoki fuqarolar urushi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin biz tez orada Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatilishiga va davlatlarning do'stona aloqalar olib borishlariga ishonamiz.

References:

1. Млечин Леонид Михайлович. – Зачем Сталин создал Израил?
2. Benny Morris. -The Birth of Palestinian Refugee Problem Revisited. 2001.
3. Александр Шулимин. -Щесть дней, которые чуть не потрясли мир. //коммерсантъ. 1997.2.
4. Ближневосточный конфликт 1947-1967. Документ № 241
5. (Запись беседы посла СССР в Израиле А.Н.Шареттом.30.03.1956)
6. Statements in the Security Council by Assambador Eban on the Kinneret incident 16 and 22 december 1955. The Failure of the Armistice.
7. Ahron Bregmen. – A history of Israel. 2002 y. 320 p.
8. Черчилль Р. и У. – Шестидневная война – The Six day war – Иерусалим: Тешарим. 2003. 3/9 стр.
9. Zeef Schiff & Eitan Haber. – Israel, Army and defense. – A dictionary - Tel Aviv. 1976.
10. United Nations Security Council Resolution. № 228.
11. МИД Израиля: XI. The Six day war // 3 Statement to the Knesset by Prime Minister Eshkol. 1962. 22 may.
12. <https://www.amerikaovozi.com>
13. <https://www.dprvn.ru>
14. <https://www.Modernlib.net>